

**Sharof Rashidov tumani Axborot –kutubxona
markazining
Axborot bibliografiya xizmati**



**Zamonaviy kutubxonalarda foydalaniladigan zamonaviy
texnologiya va dasturlar tahlili.**

MUNDARIJA

Boblar va paragraflarning nomlanishi

	Betlar
Kirish	2
I bob	
1.1 Avtomatlashtirilgan zamonaviy kutubxonalar	6
1.2. Zamonaviy kutubxonalardagi texnologiyalar	11
II bob	
2.1.Dunyoning eng yirik zamonaviy kutubxonalari faoliyatiga nazar	19
2.2.Toshkent shahridagi Inha universiteti Axborot-resurs markazi faoliyatida foydalaniladigan zamonaviy dasturlar tahlili	22
Xulosa	26
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	28

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston shaharlari azaldan ilm-fan markazi sifatida mashhur bo'lgan Shaharlarda kutubxonalar (arabcha kutub-"kitoblar", forscha xona- "uy" degani) faoliyat ko'rsatgan. Kutubxonalar axborot yig'iladigan joy hisoblangan.

Bugungi kunda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu-tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratib, ko'plab qaror va farmonlarni qabul qilib, hayotga tadbiq emoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi va Vazirlar Mahkamasining "Axborot-kutubxona muassasalarida abxorot-kutubxona resurslarini hisobga olish, fondlarini saqlash va hisobdan chiqarish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'grisida" gi qarori qabul qilindi[2:1]. Mazkur qarorlarning barchasi kitobxonlikni rivojlantirish, uni targ'ib qilishga qaratilgandir.

Fan va texnika taraqqiy etgan davrda kutubxonalarning missiyasi o'zgardi, kutubxonachining professional faoliyatida ham qoidalar yangilanishiga ehtiyoj paydo bo'ldi. Endi tadbirlar miqdori, kitobxonlar va berilgan kitoblar soni kabi ko'rsatkichlar Axborot-resurs markazi faoliyatini baholashda bosh omil bo'la olmaydi. Kutubxonachidan audiovizual va elektron hujjatlar, zamonaviy texnika bilan ishlash malakasi ham talab etiladi.

ASLIDA KUTUBXONACINI KIM? Zamonaviy kutubxonachidan nima talab qilinadi? Kutubxonachi o'quvchilarga formulyarlar ochadi, unga berilgan kitoblarning nomi va raqamlarini yozib qo'yadi. Kutubxonada tartibni saqlaydi, eskirgan kitoblarni ta'mirlaydi, yaroqsiz holga kelgan kitoblarni ro'yxatini tuzadi, yangilarini qabul qiladi, tizimli va alifboli kataloglarni to'ldiradi, o'quvchilar bilan suhbatlar o'tkazadi. Faqat shuni? Aslida, bu kutubxonachining ishi bu qadar oddiy va oson emas. Zamonaviy kutubxonachi o'quvchilarning kichik tirajda nashr etilgan yoki bo'lmasa, ancha oldin chop etilgan va qayta bosilmagan kitoblar orasidan eng siyraklari bilan tanishishi uchun imkoniyat yaratishi kerak. Shuningdek, elektron kutubxona va elektron baza bilan ishlay olish, foydalanuvchilarga kitob, elektron kitob va kerakli saytlarni topishda ko'maklashish ham ulaming vazifasiga kiradi.

Axborot, kompyuterlashtirish, hisoblash texnikasi, zamonaviy axborot texnologiyasi, modellashtirish, ma'lumotlar manbai, dasturlashtirish, shaxsiy kompyuterlar, dastur bilan ta'minlash va boshqa shu kabi ilmiy tushunchalar jamiyatni axborotlashtirishning eng muhim xususiyatlarini ifoda etadi.

Yaxshi kitobni chiroyli kutubxonada o'qish - bu, albatta ideal uyg'unlik. Tarixga nazar solsak, ilk kutubxonalar taxminan eramizdan 2600-yillar avval paydo bo'lgan ekan. Ammo afsuski u davrda ma'lumotlarning barchasini saqlab qoluvchi arxivlar mavjud bo'lmagan bo'lsa-da bizgacha ular kelmagan. Hozirgi zamonaviy kutubxonalar esa shu qadar qulay, o'ziga xos tarzda bunyod etilmoqdaki, ularni ko'rib barchaning ko'zi quv naydi. Xo'sh zamonaviy kutubxonalar nimasi bilan ajralib turadi? Ularning noodatiy dizaynidan tortib, kitoblarning turli shakllarda nashr etilganigacha e'tiborni tortmay qolmaydi. Zamonaviy kutubxonalar yangicha arxitektura uslubida bo'lib kutubxonlarni hayratga solishi tayin.

Bugungi kunda yoshlar manaviyatini oshirishda kitob eng katta vositachi deb ko'p bora ta'kidlaymiz. Ammo bugungi kun yoshlari kitob

o'qisnyapumi? Ular o'zlariga qulay bo'lgan usuldan ya'ni elektron manbalardan ko'proq foydalanishadi. Misol uchun, biror bir so'zning ma'nosini qidirayotgan bo'lishsa, albatta uni lug'at kitobdan qarashmaydi. Telefon orqali elektron lug'atdan tez va oson ko'rishadi. Shunday ekan axborot-kutubxona markazlarida elektron bazani shakllantirish va ko'paytirish muhim ahamiyatga ega. Kutubxonaga borgan kitobxonning o'zi qidirayotgan kitobini tez va oson topishi uchun elektron katalog tizimini ham rivojlantirish lozim. Fondagi barcha kitoblarni elektron katalogga kiritish va ularning to'liq elektron variantini yaratish, bibliografik faoliyatni takomillshtirib lozim.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlagani kabi, "Jahon tarixi shundan dalolat beradiki, har qanday yangi sivilizatsiya, yangi Uyg'onish davri kitob va kutubxonalardan boshlanadi". Kutubxonashunoslik sohasini yanada rivojlantirish uchun bugungi kunda katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Sohamiz bo'yicha Kutubxonaaxborot faoliyati nomli 2011-yil 13-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Qonuni kutubxonachilik ishida ko'plab ishlarni tartibga soldi. Bejizga qonunning 1-moddasiga qonunning maqsadi "axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish" deya kiritilmagan. Hozirgi kunda respublikamiz bo'yicha ko'plab yirik kutubxonalar zamonaviy texnologik jihozlar bilan ta'minlanmoqda.

Kompyuter, internet, modem tarmoqlari bilan ta'minlangan bo'lib, kutubxonalararo ma'lumot almashishlar yo'lga qo'yilgan. Bir kutubxonada yo'q bo'lgan kitobning elektron shakli, boshqa bir kutubxonaning elektron fondida mavjud bo'lishi mumkin. O'zaro ichki elektron almashishning yo'lga qo'yilganligi bu kitobxonning tez va oson eng muhimi qidirgan ma'lumot, adabiyotini topishiga yordam beradi.

1.1 Avtomatlashtirilgan zamonaviy kutubxonalar

Kutubxona texnologiyalarini avtomatlashtirishda dasturiy ta'minotning o'rni beqiyosdir. Kutubxona texnologiyalarini

avtomatlashtirilgan kutubxonalar tizimlar dozorining tashkili [4.Karimov U. Elektron bibliografik resurslar yaratish texnologiyasi va manbalari. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2006 . – 194 b.] da batafsil keltirilgan. Bizga ma’lumki, avtomatlashtirilgan kutubxonaxborot tizimi (AKAT) o‘zaro yagona ma’lumotlar bazasi orqali bog‘langan bir necha (dasturiy, texnik, axborot, lingvistik, tashkiliy-texnologik va kadrlar) ta’minotlardan iborat. Ana’naviy kutubxonada ushbu ta’minotlar tizimini yaratmasdan turib, AKM va ARM yaratish hech qanday samara bermaydi. AKM va ARM lar barpo qilinishi va ular to‘laqonli faoliyat yuritishlari uchun kutubxonadagi quyidagi asosiy jarayonlar avtomatlashtirilishi zarur:

- kutubxonaga qabul qilinayotgan yangi hujjatlarga avtomatik tarzda (texnik va ilmiy) ishlov berish;
- kartotekalarni, nashrlar ro‘yxatini, buyurtmalarni, xatlarni, hisobot hujjatlarini tayyorlash;
- qabul qilinayotgan hujjatlarning ma’lumotlar bazasini yaratish;
- turli mavzudagi adabiyotlar arxivini yaratish va undan nusxa olish bo‘yicha operatsiyalarni bajarish;
- kitobxonlar so‘roviga mos holda bibliografik tasvirning barcha elementlari bo‘yicha qidiruvni bajarish;
- kutubxonaning axborot va davriy nashrlarining ma’lumotlar bazalari orqali xizmat ko‘rsatish;
- jurnal maqolalarining bibliografik tavsiflari massivini yuritish;
- elektron ma’lumotnomalar yaratish;
- berilgan adabiyotlarni nazorat qilish;
- kitobxonlar va ularning formulyarlarini hisobga olish;
- berilgan adabiyotlarni kitobxonning formulyariga avtomatik tarzda yozib qo‘yish;

- kitoblarni o'z vaqtida qaytarib berilishini nazorat qilish;
- kutubxona elektron katalogini shakllantirish, yuritish.

Yuqorida ko'rsatilgan kutubxonadagi asosiy jarayonlar avtomatlashtirilgach AKM va ARM larida quyidagi imkoniyatlar paydo bo'ladi:

- axborot qidiruvi tezligi oshadi;
- ma'lumotlarni bir marotaba kiritish va ulardan hujjatlarni ko'p maqsadli qidirishda foydalanish, tanlangan axborotlarni bosib chiqarish, ma'lumotlar massivlarini boshqa foydalanuvchilarga uzatish, nashrlarni tayyorlash va boshqalar;
- turli belgilariga ko'ra va ularning kombinatsiyalari yordamida qo'shimcha kartoteka va ko'rsatkichlardan foydalanmay ko'p aspektli qidiruvni bajarish;
- o'z kutubxonasidagi kompyuterdan foydalanib, tarmoq va kommunikatsiya vositalari yordamida boshqa kutubxona kataloglaridan va yig'ma katalogda qidiruvni bajarish. Katta hajimdagi ma'lumotlar bazalari joylashgan optik disklarda qidiruvni bajarish va kerakli ma'lumotlarni olish;
- kutubxona fondini butlashda nashriyotlar va kitob savdosi tashkilotlarining ma'lumotlar bazalari asosida buyurtmalarni avtomatik ravishda shakllantirish va ularni bajarilishini tashkil qilish;
- kutubxonadagi barcha jarayonlarni, jumladan, kitobxonalarga xizmat ko'rsatishni ham, hisobga olish va kutubxona statistikasini yuritish;
- kutubxona kataloglarini bir necha nusxada ishonchli saqlash;
- kutubxonaga qabul qilinayotgan hujjatlar oqimiga ishlov berish va fondni butlash xarajatlarini qisqartirish;
- yangi axborot manbalari jalb qilish hisobiga iste'molchilarga xizmat ko'rsatish doirasini kengaytirish.

Kutubxonadagi barcha asosiy jarayonlar (axborotlarni yig'ish, ishlov berish, saqlash, qidirish, uzatish) avtomatlashtirilgach elektron kutubxona yaratish uchun zamin hozirlangan bo'ladi va barcha asosiy kutubxona texnologiyalarini avtomatlashtirgan kutubxona Internet yoki Intranet orqali Elektron kutubxona xizmatini yo'lga qo'ya oladi. Eng asosiysi, kutubxonalarni avtomatlashtirish, kitobxonlarini Vatan va jahon axborotlar fazosiga chiqishini ta'minlaydi. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, kutubxonalarni avtomatlashtirish jamiyatni axborotlashtirishning muhim bir bosqichi ekan.

Bugungi kunda kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirishga mo'ljallangan bir qator kutubxonalarni avtomatlashtiruvchi tizimlar mavjudki, ularda quyidagi funksional bo'limlar mavjud:

- kataloglashtirish, elektron katalog (EK), ma'lumot-bibliografik xizmat;
- optik disklardagi yoki boshqa kutubxonalardagi EK larning ma'lumotlar bazalaridan foydalangan holda, bibliografik xizmat ko'rsatish;
- kitobxonlarga xizmat ko'rsatish (kitobxonlarni ro'yxatga olish, kitob berish, qaytarib olish va boshqalar);
- kitob almashishni ham o'z ichiga oluvchi fondni butlash;
- davriy nashrlarni ro'yxatga olish va unga mos EK ni yuritish;
- kutubxonalararo abonement;
- avtomatlashtirilgan tarzda bibliografik nashrlarni tayyorlash (katalog kartochkalarini ham tayyorlash);
- kutubxonani boshqaruv (hisobga olish, statistika, kadrlar, buxgalteriya va boshqalar).

Kutubxonadagi asosiy axborot jarayonlarni avtomatlashtirish AKM va ARM barpo qilishda muhim bosqich hisoblanadi, odatda dastlab, kutubxona fondini o'zida aks ettiruvchi elektron katalog bazasini shakllantirish bilan ish boshlanadi.

Shunday qilib, DIZ AKM va AKM darpo qismlarida qasbiy avtomatlashtirilishi kerak bo'lgan asosiy kutubxona texnologiyalarini ko'rib chiqdik va bu jarayonlar avtomatlashtirilmasdan AKM va ARM yaratish mumkin emasligiga ishonch hosil qildik. Ammo kutubxonada biz yuqorida ko'rib o'tgan jarayonlardan tashqari ham bir qator jarayonlar borki, ularni ham avtomatlashtirmay turib, kutubxonani to'liq avtomatlashtirishga erishish mumkin emas. Keyingi yillarda RFID (radio to'liqli identifikatsiya) texnologiyasini kutubxonalarda tatbiq qilish to'g'risida ko'plab axborotlar e'lon qilinmoqda, jumladan, Qrimda va Moskva viloyatining Zvenegorod shahrida bo'lib o'tadigan xalqaro konferensiyalarda, RFID texnologiyasini kutubxonalarda tatbiq qilish bo'yicha bir qator taqdimotlar ilmiy ma'ruzalar qilindi.

1.2. Zamonaviy kutubxonalardagi texnologiyalar

Zamon shiddat bilan rivojlanib bormoqda, bu esa kutubxona tizimiga, ish faoliyatiga ta'sir qilmasdan qolmayapti. Zamonaviy kutubxonalarda foydalanilayotgan texnologiyalar ham kun sayin o'zgarib, rivojlanib bormoqda.

Keyingi yillarda RFID (radio to'liqli identifikatsiya) texnologiyasini kutubxonalarda tatbiq qilish to'g'risida ko'plab axborotlar e'lon qilinmoqda, jumladan, Qrimda va Moskva viloyatining Zvenegorod shahrida bo'lib o'tadigan xalqaro konferensiyalarda, RFID texnologiyasini kutubxonalarda tatbiq qilish bo'yicha bir qator taqdimotlar ilmiy ma'ruzalar qilindi.

RFID texnologiyasi nima ekanligini shtrix kod texnologiyasi misolida tushuntirishga harakat qilamiz. RFID texnologiyasi mohiyati bo'yicha bir oz shtrix kod texnologiyasiga uxshab ketadi, ammo RFID ning bir qator afzalliklari bor. Qanday? Bularni aniqlashga harakat qilamiz. Rivojlangan mamlakatlar kutubxonalarida ishlatilayotgan shtrix kod texnologiyasi o'z vaqtida kutubxonachilarga beminnat yordam ko'rsatib

keigan, shtrix kod texnologiyasi yordamida kitob berish va qaytarib olish jarayonlari tezlashgan, xatolar soni sezilarli darajada kamaygan. Bularning barchasi, kitobxonlarga berilayotgan va qaytarib olinayotgan har bir kitob to'g'risidagi ma'lumotlarni qo'lda yozish zaruratini cheklash va ayni paytda bu operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni kompyuter xotirasiga avtomatik ravishda kiritish imkoniyatini berar edi. Bu jarayonlarni avtomatlashtirishda shtrix kod texnologiyalaridan umumli foydalanilgan. Mazkur texnologiya yordamida kutubxona texnologiyalarini avtomatlashtirishda muhim bir muammo hal qilindi, ya'ni kitob berish va qaytarib olish jarayonlari, har bir kitobga biriktirilgan shtrix kod shaklidagi axborotlarni skaner qurilmasi yordamida o'qish orqali, avtomatlashtirildi.

Dastlab, shtrix kod texnologiyalarini kutubxona jarayonlariga tatbiq qilish, kutubxonadagi barcha jarayonlarni avtomatlashtirgandek tuyuldi. Ammo, kutubxonalarda avtomatlashtirilmagan yana ikki jiddiy muammo bor ediki bulardan birinchisi kutubxonalarda o'tkaziladigan inventarizatsiya jarayoni, ikkinchisi esa KBK, UDK yoki boshqa biror bir klassifikatsiyalash tizimi asosida joylashtirilgan fondagi o'z joyiga qo'yilmagan kitoblarni qidirish va o'z joyiga qo'yish muammosi edi. Kutubxonachilarga ma'lumki kutubxona fondidagi har bir kitob o'z (adresiga) o'rniga ega, o'z o'rniga qo'yilmagan kitob odatda kitobxonlar uchun yo'qotilgan hisoblanadi va u navbatdagi inventarizatsiya paytida topiladi va o'z joyiga qo'yiladi. Bundan tashqari, keyingi paytda ko'plab kutubxonalar "ochiq fond" tartibida ishlamoqdalar. Bunday holda fondlardan kitoblarning yo'qolishi ko'payyadi, ya'ni kitoblarni "kitob o'g'rilaridan" himoya qilish ehtiyoji tug'iladi. Bunday muammolarni shtrix kod texnologiyasi hal qila olmas edi.

Fonda, bevosita har bir kitobga kontaktsiz, ma'lum bir masofadan turib identifikatsiyalash orqali inventarizatsiya o'tkazish, inventarizatsiya jarayonini tezlashtirishning yagona usuli hisoblanadi. Kutubxona fondini inventarizatsiya qilish bu kutubxonada eng uzoq davom etadigan jarayondir. Bunda tokchadagi har bir kitob qo'lga olinib u

identifikatsiya qilindi va o'z joyiga qo'yildi. Demak, kutubxonadagi har bir kitob qo'l bilan ushlanib, tegishli ma'lumotlar taqqoslanib so'ngra kitob o'z urniga qo'ilishi kerak. Kutubxona fondida 10 000 – 15 000 kitob bo'lganda bu shni bajarish unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Ammo, fondagi kitoblar soni 100 000 – 1 000 000 bo'lgandachi? Bunday holda inventarizatsiya bir necha oyga cho'zilishi mumkin. Inventarizatsiya uchun qancha vaqt ketadi? O'z joyiga qo'yilmagan kitoblar odatda, kitobxonlar uchun yo'qotilgan hisoblanadi, chunki so'rovni bajarayotgan kutubxonachi kitobni maxsus shifr bo'yicha izlaydi, kitobni o'z o'rnidan topmagach, kitobxon so'roviga rad javobini beradi. Bunday hol katta fondga ega va "ochiq fond" tartibida ishlayotgan kutubxonalarda ko'p uchraydi. Chunki "ochiq fond" tartibida ishlayotgan kutubxonalardan foydalanayotgan kitobxonlarning kitobni o'z o'rniga qo'ymaslik ehtimoli katta bo'ladi. Masalan, Vatikan kutubxonasining "nodir kitoblar" bo'limi fondida 2 000 000 saqlash birligi hajmida kitob saqlanadi. Bu yerda o'z o'rniga qo'yilmagan kitoblarni izlash muammosi juda oson hal qilingan, ya'ni o'z o'rniga qo'yilmagan kitob faqat navbatdagi inventarizatsiya paytida topilib, o'z joyiga qo'yilgan. Kutubxonaning "ochiq fond" tartibida ishlashining afzalliklari bilan bir qatorda kamchiliklari ham bor. Bunday tartibda ishlaydigan kutubxonalar fond xavfsizligini to'liq ta'minlashlari lozim. Buning uchun shtrix kod texnologiyasidan tashqari, har bir kitobga o'g'rilanishga qarshi metka o'rnatilishi va kitob berish kafedrasida bu metkalar faolsizlantirilishi kerak. Bunday holda kitobxonlarga mustaqil ravishda xizmat ko'rsatish stansiyalaridan foydalanish imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Shu sababli ham bu sohada barcha tajribalar muvofaqiyatga olib kelmadi. Shunday qilib, kutubxona texnologiyalarini avtomatlashtirishda shtrix kod texnologiyalaridan foydalanish ham o'z imkoniyatlari chegarasiga yetdi. Mazkur texnologiya bugungi kunda zamonaviy kutubxonalar oldida turgan muammolarni hal qila olmay qoldi. RFID texnologiyasi shtrix kod texnologiyalaridagi barcha yutuqlarni o'zlashtirgan holda, ular yecha olmagan muammolarni hal qilishga kirishdi. RFID texnologiyasi quyidagi prinsipda ishlaydi: har bir kitobga

radiofrenstotai metka yopishtiriladi, bu metkada unikal identifikatsion kod saqlanadi va kutubxonaning AKAT dagi aniq bir kitobga biriktiriladi. Maxsus qurilma yordamida metkalar identifikatsiyalanganda o'qish qurilmasi kitob to'g'risidagi ma'lumotlarni avtomatik ravishda kompyuterga uzatadi. RFID texnologiyasidagi afzalliklardan biri shundaki, ma'lumotni o'qish qurilmasi (rider) bir paytning o'zida bir necha metkani o'qiy oladi, bunda metkalar to'g'ridan to'g'ri riderning "ko'rish zonasida" bo'lishi shart emas, bu hol kitob berish jarayonini tezlashtiradi.

Ma'lumotlarni avtomatik ravishda o'qish imkoniyatiga ega bo'lgan skaner qurilmalaridan foydalanganda, shtrix kod skanerning ko'rish zonasiga aniq o'rnatilishi kerak edi. RFID texnologiyasi yordamida kitob berish va qaytarib olish jarayonlari avtomatlashtirilganda, kitobxon chiptasini skaner qurilmasi orqali o'qish, har bir kitobni alohida qo'lga olib, uni skaner orqali o'qishga ehtiyoj qolmaydi. RFID qurilmasi bir yo'la bir necha kitobni va kitobxon chiptasini avtomatik tarzda o'qiy oladi va kitoblarni kitobxonning elektron formulyariga yozib qo'ya oladi hamda berilayotgan kitoblardagi "o'g'rilashga qarshi" funksiyani faolsizlantiradi. RFID texnologiyasini kutubxonadagi inventarizatsiya jarayonlarini tezlashtirishda muvofaqiyat bilan qo'llash mumkin. Bunda stellaj tokchasidagi har bir kitobni tokchadan olish, undagi shtrix kodni skaner yordamida o'qish, kitobni o'z joyiga qo'yish operatsiyalari o'rniga, stellaj tokchalari yonidan rider qurilmasi bilan bir marotaba o'tish kifoya qiladi. Rider tokchadagi barcha kitoblar to'g'risidagi ma'lumotlarni kompyuterga uzatadi. Umuman olganda, RFID texnologiyasidan foydalanish kutubxonalagi inventarizatsiya jarayonini 20 martaga qisqartirish imkoniyatini berar ekan.

O'z faoliyatini "ochiq fond" tartibida tashkil etgan kutubxonalarda fondni himoya qilish uchun maxsus RFID eshik o'rnatilishi kifoya. Bu eshik, kutubxonadan ruxsatsiz olib chiqilayotgan har bir kitobga nisbatan tovush yoki nurli signal berish orqali e'tibor qaratadi. Eshik kutubxonaning AKAT ga ulangan holda kompyuter ekranida kimning qanday

Kitob olib chiqayotganligi aks etadi. Bunday holda fonni o'g'irlashga qarshi standart metkalar bilan ta'minlashga hamda bunday metkalarni faolsizlantiruvchi va faollashtiruvchi qurilmalarga ham hojat qolmaydi. Radiochastotali metka xotirasidagi sektor o'g'irlashga qarshi funksiyani ham bajaradi.

RFID tizimi ko'pdan beri jahondagi juda ko'p kutubxonalarda muvofaqiyat bilan qo'llanilmoqda. Bu sohadagi eng yirik loyiha Singapurdagi milliy kutubxonada amalga oshirilgan. Bu yerda kutubxonani avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi RFID tizimi asosida amalga oshiriladi. Singapur milliy kutubxonasida RFID texnologiyasini tatbiq qilishdan asosiy maqsad, kitobxonlarni kutish vaqtini qisqartirish bo'lgan. Avval kitobxonlar navbatda turib kitob olishga bir soatdan ortiq vaqt sarf qilsalar (tig'iz paytda), RFID texnologiyasini tatbiq qilinganda bu ko'rsatkich 10 minutga qadar pasaygan. Kutubxonadan foydalanuvchilar va qatnovlar soni keskin oshgan. Albatta, bunda "ochiq fond" g'oyasini to'g'ri va ilmiy asosda amalga oshirilishining ham hissasi bo'lgan.

Kutubxona avtomatlashtirilgan kitob berish va kitoblarni qaytarib olish imkoniyatini beruvchi stansiyalar bilan ta'minlangach, kitobxonlar tomonidan tanlangan kitoblar mustaqil ravishda rasmiylashtiriladi (kitobxon tomonidan tanlangan kitoblar to'g'risidagi ma'lumotlar, kitob berish stansiyasi yordamida, kitobxonlarning elektron formulyariga yozib qo'yiladi). Kitoblarni qaytarib olishga mo'ljallangan robot-saralagich mustaqil ravishda kitoblarni saralaydi, kutubxonachi esa kitoblarni tokchalaga joylashtiradi xolos.

Vatikan kutubxonasi fondini inventarizatsiya qilishning o'zoq vaqtga cho'zili RFID texnologiyasini tatbiq qilishga olib kelgan. Bu kutubxonada inventarizatsiya jarayoni ikki oy davom etib, bu ishga ko'plab xodimlar jalb qilingan. Kutubxonada RFID texnologiyasini tatbiq qilingach, ko'p millionli fondni inventarizatsiya qilish, ikki xodim tomonidan bir kunda bajarilgan. Vatikan kutubxonasidagi kitoblarning ko'pchiligi qadimiy kitoblar

bo'lgani uchun nam ularni o'z o'rnidan siqitmay inventarizatsiya o'tkazish juda muhim bo'lgan. 2007 yildan boshlab, Germaniyaning Gamburg shahridagi ommaviy kutubxonalarda RFID texnologiyasidan foydalanish rejalashtirilmoqda. Yillik kitob aylanishi 2 000 000 birlikdan iborat bo'lgan kutubxonalarda hujjatlarni berish va qaytarib olishni avtomatlashtiruvchi terminallar o'rnatilishi ko'zda tutilmoqda. Terminallar dastlab kutubxonaning bo'limlarida keyinchalik esa markaziy binoda o'rnatiladi. Loyiha ishlarini boshlash 2007 yilning aprel oyidan va 2008 yilning yoz fasliida uni tugallash mo'ljallanmoqda. RFID tizimi amaldagi bar-kod tizimi o'rniga tatbiq qilinadi va u kitob berish va berilgan hujjatlarni qaytarib olish operatsiyalari uchun sarf bo'ladigan vaqtni qisqartiradi hamda fondni inventarizatsiya qilish, o'g'rilashga qarshi funksiyalarni bajaradi. Kutubxonadagi barcha hujjatlarga (kitoblar, jurnallar hamda DVD disklar) 13,56MHz chastotada ishlovchi passiv RFID-metkalar yopishtiriladi. Kitobxonlar kutubxonaning ixtiyoriy bo'limidagi "ochiq fondan" o'zlariga kerakli kitoblarni mustaqil ravishda tanlash va qaytarib topshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Kutubxonaning markaziy binosida o'z o'ziga xizmat ko'rsatuvchi 7 ta terminal, 17 ta bo'limning har birida bittadan terminal o'rnatish mo'ljallanmoqda.

Kitobxon o'ziga kerakli kitobni tanlab uni 80x80X60sm o'lchamli stol ustiga qo'yadi, terminal stoliga o'rnatilgan RFID-o'qish qurilmasi metkadagi identifikasion unikal nomerni o'qiydi va kerakli ma'lumotlarni kompyuterga uzatadi. Kitobni qaytarib berish operatsiyasi ham xuddi shunday bo'ladi. Kompyuter tizimidagi AKAT sensorli ekranda kitobni qaytarib berish to'g'risidagi ma'lumotni tasdiqlanishini so'raydi. Kitob qaytarib topshirilgach, tizim kitob uchun o'g'rilashga qarshi funksiyani faollashtiradi. Kitobni olgan kitobxon uni terminal stoli ustiga qo'ymasa, kitobxon eshikdan chiqish paytida signalizatsiya ishlaydi. Tanlangan kitob yoki biror bir hujjatni olgan kitobxon o'ziga kutubxonadan foydalanish huquqini beruvchi shaxsiy kartasini maxsus slotga o'rnatishi lozim. Programma ta'minoti kim tomonidan qanday kitobni qachon olganligini

nazorat qismini imkoniyatini beradi. Oktabr oyidan boshlab, kutubxonalar xodimlari hujjatlarni markirovka qilishni boshlaydilar. Har bir hujjatga o'zi yopishib qoluvchi kvadrat shaklidagi RFID-metka yopishtiriladi.

Bugungi kunda RFID texnologiyasidan jahondagi juda ko'plab kutubxonalar foydalanishmoqda. 2006 yilning birinchi yarmida turli tipdagi 250 dan ortiq kutubxonalarda mazkur texnologiyalar tatbiq qilingan. Shunday qilib, kutubxonalar texnologiyalari avtomatlashtirishda AKAT laridan foydalanish quyidagi kutubxonalar texnologiyalarini avtomatlashtirish imkoniyatini beradi:

- kitobxonalar elektron formulalarini yaratish;
- kutubxonalar elektron katalogini shakllantirish va foydalanish;
- kitoblarga buyurtma berish;
- berilgan buyurtmalarni bajarish;
- turli sabablarga ko'ra rad etilgan buyurtmalar tahlili;
- kitob berish va qaytarib olishni nazorat qilish;
- fondni butlashga oid masalalar;
- masofadan turib elektron katalogdan foydalanish va buyurtmalar berish;
- korporativ kataloglashtirish;
- kutubxonani boshqarish va boshqalar.

RFID texnologiyasidan foydalanish AKATlar bajara olmaydigan kutubxonadagi quyidagi:

- mustaqil ravishda (kutubxonachining ishtirokisiz) kitob berish va qaytarib topshirish;
- kutubxonalar fondini inventarizatsiya;
- o'z o'rniga qo'yilmagan kitoblarni izlab topish;

- KITOBNI RUXSATSIZ KUTUBXONADAN OLIB CHIQISNGA CNEK QO'YISH texnologiyalarini avtomatlashtirishga imkon yaratadi

2.1.Dunyoning eng yirik zamonaviy kutubxonalar faoliyatiga nazar.

Zamonaviy kutubxonachi nafaqat internet tizimining mohir foydalanuvchisi bo'lishi, balki, u kutubxona qidiruv tizimlarini ham yaxshi tushunishi kerak. Bu hozirgi yangi rivojlanish bosqichiga o'tayotgan davlat kutubxonachisining missiyasidir.

Eng yaxshi mudofaa - bu o'zgaruvchanlik, mohiyatni saqlab qolgan holda yangi shaklga o'tish qobiliyatidir. Bu kutubxonalarning mavjudligiga ham tegishli. Agar ular zamon talablariga yarasha o'zgarmasa, insonlar o'zlari uchun tezda yangi dastur topadilar, kitoblarni o'choqqa uloqtirishadi! Kutubxona binolarini esa tijorat muassasalariga aylantirishadi. Kutubxonalar o'zgarishi kerak. Kelajak kutubxonalarini yaratish kerak. G'arbda ham, Rossiyada ham bu tendensiya allaqachon namoyon bo'lmoqda. Ularning ba'zilarini taqdim etaman.

Aqshda jamoat kutubxonalari soni McDonald's restorantlari va Starbucks qahvaxonalari sonidan ko'proq. Jamoat kutubxonasi faqat kitobxonaga emas. Masalan, Boston jamoat kutubxonasi taklif qiladigan bepul xizmatlar ro'yxati: boshpana, bepul ovqat, bepul tibbiy yordam va bepul yuridik va moliyaviy xizmatlar.

Koreyaning eng zamonaviy kutubxonalaridan biri - Janubiy Koreya Milliy smart kutubxonasi. U Sejong shahrida joylashgan. Milliy kutubxona Koreya milliy kutubxonasining birinchi filiali sanalib, u aynan Koreyaning multifunksional-adminstrativ shahrida qurildi. Taniqli Samoo Architects & Engineers tomonidan barpo etilgan majmuaning tashqi qiyofasi varaqlanayotgan kitobning shaklini yodga soladi va o'zining noodatiy dizayni tufayli osonlik bilan kitoblar makonini topib olish imkonini beradi.

Sejong kutubxonasi nafaqat turli-tuman sohalarga bag'ishlangan kitoblarni o'zida jamlagan zamonaviy maskan, balki, kitobxonlar qulayligi uchun eng ilg'or raqamli texnologiyalarni o'zida mujassam etgan mukammal majmua hisoblanadi. Shu sababli ham kutubxonaga "E-BRARY" (ya'ni emotion-emotsiya, brary-kutubxona) nomi berilgan.

Bundan tashqari kuni kecha Xorazmda ko'zni quvnatadigan "Yoshlar kutubxonasi" ochildi. 100 ming kitob fondiga ega bo'lgan kutubxonada 7000 xildagi darsliklar, ilmiy va badiiy adabiyotlar jamlangan, O'zbekiston milliy kutubxonasining elekton bazasi ham ulangan.

Shuningdek, Ozarbayjon Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi Elchixona huzuridagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat Markazining kutubxonasi ham 2010-yil 27-sentabrdan beri o'zining muvaffaqiyatli faoliyatini davom ettirib kelmoqda. Kutubxona fondida ozarbayjon, o'zbek, rus va ingliz tillarida 3 mingga yaqin kitob va jurnallar mavjud [3:1].

Hududimizda o'nlab, yuzlab kutubxonalar tashkil qilinmoqda. Bulardan maqsad, xalqning, jamiyatning, yosh avlodning ma'naviyatini boyitish, dunyoqarashini kengaytirish, ularning turmush tarzini zamon talablariga moslash, o'sib, rivojlanib kelayotgan yoshlarni milliy ongini shakllantirish, ularni barkamol qilib tarbiyalashdir. Xalqimizda "Zamon seni emas, sen zamoni boshqar [4:3]" singari hikmatli so'zlar baralla yangramoqda. Hozirda biz yashayotgan asr "Ilg'or texnologiyalar" asridir. Agar biz mutolaamizni ham zamon talablariga moslamasak, bizning ajdodlarimiz tomonidan necha yuz yillar davomida yaratilgan asarlar, qo'lyozmalar o'z qadrini yo'qotishi mumkin, biz buni to'g'ri anglab yetishimiz darkor. Shu maqsadda Prezidentimiz shunday degan edi "Kitob o'qigan, o'z ustida ishlagan odamda qanot bo'ladi. U befarq bo'lmaydi. Uning kuchi bilimida bo'ladi. Shuning uchun hech kimni pisand qilmaydi. "Kattalar"ga

xusnomad qilmaydi. Uning uimi bor, dilimi bor. Mana nima uchun kitob o'qinglar deymiz" [5:1].

Haqiqatan, kitob insonga o'zgacha kuch beradi, fikrlarini ravshan qilib, ongini charxlaydi, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishda yordam beradi. Kitob o'qish - inson tafakkurining ozuqasidir

2.2.Toshkent shahridagi Inha universiteti Axborot-resurs markazi faoliyatida foydalaniladigan zamonaviy dasturlar va texnologiyalar tahlili

Toshkent shahridagi Inha universiteti O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov tashabbuslari bilan 2014-yil Janubiy Koreya Respublikasining Inha universiteti bilan qo'shma hamkorlikda tashkil etilgan bo'lib, universitetning ta'lim tizimi, o'quv jarayonlari Koreya Inha universitetining dasturi bo'yicha faoliyat olib boradi.

Toshkent shahridagi Inha universiteti axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni xalqaro standartlar darajasida yanada takomillashtirish maqsadida, shuningdek, yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi va "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish doirasida o'z faoliyatini olib bormoqda.

Toshkent shahridagi Inha universiteti talabalarni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'qitadi:

- Kompyuter va dasturiy injiniring fakulteti - School of Computer and Information Engineering (SOCIE) bakalavr;
- Biznes va logistika fakulteti - School of Business and Logistics (SBL) bakalavr;
- Raqamli transformatsiyadagi MBA - MBA in digital transformation magistr darajasi.

Axborot-resurs markazining umumiy fondi 20 100 dan ortiq nusxa adabiyotlardan iborat.

O‘quv adabiyotlar: 6 / nomda, 10 000 nusxada;
Badiiy adabiyotlar: 7063 nomda, 9700 nusxada;
Elektron kitoblar: 210 ta;
O‘quv qo‘llanmalar: 190 dan ortiq nusxada.

Kutubxonadagi kitoblarning 95%i adabiyot va o‘quv materiallaridan iborat: Ular ingliz, koreys, nemis, fransuz, polyak, yunon va boshqa tillarda mavjuddir. Qolganlari esa o‘zbek va rus tillaridagi kitoblarni o‘z ichiga olgan.

Universitetning Axborot-resurs markazi fondining asosiy qismi ingliz tilida bo‘lgan IT va Logistika sohasiga oid resurslardan iborat. Shuningdek ARM zamonaviy texnologiyalar bilan to‘liq jihozlangan bo‘lib, talaba kitobxonlar uchun qulay tizmda faoliyat olib boradi. Jumladan, Kutubxonachi va kitobxon o‘rtasidagi aloqalar to‘liq avtomatlashtirilgan. ARM uchun maxsus dastur yaratilgan bo‘lib, kitobxonni ham kutubxonachini ham ishini yengillashtiradi. Mazkur dastur LMS (Library Management System) deb nomlangan bo‘lib, Kutubxonachilar uchun va kitobxonlar uchun alohida bo‘limlardan iborat veb sayt hamda mobil ilova ko‘rinishida ishlab chiqilgan. Xodimlar uchun Administration, Kitobxonlar uchun User bo‘limi orqali ish olib boradi. Kitobxon o‘zi uchun kerakli kitobni qidiradi, kerakli kitobni buyo‘qliginitekshiradi va zahirada nechta kitob borligini bilib u kitobni brom qiladi. Kitobxon uchun kitobni qaysi stelaj va qaysi qatorda turgani va u kitobni soni nechta ekani ko‘rinib turadi.

Kitobxon tanlagan kitobini olish uchun kutubxonaga keladi va xodimlarga murojat qiladi. Xodimlar brom qilingan kitoblarni olib qo‘yadi va kitobxon kelganida u kitobni berib yuboradi. Shuningdek, kitob olish, qaytarish, muddatini cho‘zish ishlari ham bevositra shu birgina dastur orqali amalga oshiriladi. Agar kitobxon kitobni olib belgilangan muddatda qaytarmasa uning email pochta-siga kitobni qaytarish to‘risida ogohlantiruv xabar boradi. Agar talaba shunga qaramay kitobni qaytarmasa universitet hududida foydalaniladigan bepul Wi Fi tizimidan kutubxona xodimlari tomonidan uzib qo‘yiladi. Bordiyu talaba manashu ikkinchi bosqichdan keyin ham kitobni qaytarib olib kelmasa ARM tomonidan rahbariyat roziligi bilan IT (Axborot computing) bo‘limiga

nabar berilib, talabani universitetga kiritish-chiqish uchun berilgan ID kartalari bloklanadi. Yani turniket tizimi u talaba uchun yopilada, natijada talaba universitetga kirolmaydi va darslarda qatnasha olmaydi. Qarzdorlikni yopganidan so'ng talaba uchun yana odatiy holda Wi-Fi va Turniket dostupi ishga tushirib beriladi.

LMS dasturi nafaqat kitobxon va kutubxonachi o'rtasidagi muloqotni amalga oshiribgina qolmay, kutubxonachining eng yaqin yordamchisi hisoblanadi. Ya'ni elektron katalog va farmulyar ham bevosita mana shu dasturning o'zida bo'lib, biron bir manbani topish uchun mana shu dasturning o'zida kitob nomini yozish orqali qidirilib, kitob turgan stelaj va qatorini ko'rsatib turadi. Bu esa kutubxona faoliyatini va kutubxonachi vaqtini ancha tejaydi.

Kitob olgani kelgan kitobxon o'z ID kartasini beradi, xodim uni mahsus uskunaga tekkizish orqali kitobxonning shaxsini aniqlaydi va tanlagan kitobini boshqa mahsus kitob o'quvchi uskunaga tekkizish orqali kitob haqidagi ma'lumotlar aniqlanadi va kitobxon nomiga avtomatik tarzda rasmiylashtiriladi. Bu jarayonni kitobxon o'z telefoniga o'rnatilgan mobil ilova yoki web sayt orqali kuzatib turishi mumkin.

Shuningdek bu dastur inventarizatsiya jarayonini bevosita osonlashishiga olib keladi. Yo'qolgan kitoblar dasturda belgilab qo'yiladi, inventarizatsiya jarayonida kitob bor –yo'qligini ana shu dastur orqali amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Albatta kitobni mahsus uskuna o'qiy olishi uchun kitoblarning har biriga raqamlashtirilgan Chiplar o'rnatilgan va dasturga har bir kitob kirgizib chiqilgan.

Shu qatorda LMS dasturining o'zini elektron kutubxonasi mavjud bo'lib, Foydalanuvchilarning har biri o'zlarining Login Parollari orqali kirib elektron kitoblarni online o'qish imkoniyatiga ham egadirlar. Elektron kutubxonaga kitoblarning mavjud elektron versiyasi joylashtirilgan va izlangan resurs mavjud bo'lsa kutubxonaga kelmasdan turib online holda resurs izlab topishlari mumkin.

ARM ga kirish-chiqish eshiklariga RFID eshiklari o'rnatilgan shu bilan butun kutubxona kameralar bilan kuzatuvda bo'ladi. Fond havfsizligi

kameralar orqali kutubxona xodimlari tomonidan nam muntazam kuzatiladi. RFID eshiklari ham kitobga yopishtirilgan chiplar orqali ovoz chqaradi. Birgina kitobga o'rnatilgan chip kitob o'qish uskunasi uchun ham RFID eshigi uchun ham ishlaydi. Bundan ko'rish mumkinki ARM dagi barcha texnologiyalar bir biriga hamohang ravishda faoliyat yuritadi desa mubolag'a bo'lmaydi.

Zamonaviy texnologiyalar faqat va faqat xodim va kitobxonning vaqtini tejab, ishini yengillashtiradi. Hozirgi har bir daqiqa g'animat bo'lgan bir davrda insonlarni tig'iz vaqtlari ancha tejaladi. O'ylaymanki kelajakda har bir kutubxonaga manashunday texnologiyalardan foydalanib sharoitlar yartish zar

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Kutubxonaning missiyasi - har-bir foydalanuvchiga istalgan axborot resursdan foydalanish uchun sifatli va samarali sharoit yaratishdan iborat. Biroq, shunisi o'ta muhimki, taqdim etiladigan ma'lumot kishilarning ilmiy va kasbiy faoliyatiga ko'maklashishi, asrlar davomida qayd etilgan donolik sarchashmalari, boshqalar tajribasi va ezgu g'oyalari yo'l ochishi, madaniy tarbiyaga ko'maklashishi, madaniyat, ilm-fan va eng yangi texnologiyalardan foydalanishga imkon yaratishi shart. Kutubxona vazifalari haqida so'z yuritganda esa, quyidagi vazifalarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- foydalanuvchilarning ta'lim va ilmiy, individual ehtiyojlarini qondiradigan zamonaviy axborot mahsulotlari, xizmatlar va servislarni yaratish va taklif qilish;
- axborot madaniyatini oshirish, foydalanuvchilarning axborot kompetentsiyalarini rivojlantirish;
- elektron hujjatlarni preventiv va tiklovchi xarakterdagi chora-tadbirlar majmui orqali mavjud kutubxona fondini saqlash;
- faoliyatning barcha yo'nalishlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot, uslubiy ishlarni (tahliliy, tashkiliy, konsaltativ) olib borish;

- bosnqa kutubxonalar bilan ijodiy va konstruktiv munosabatlarni yaratish, kutubxonaning mintaqaviy uslubiy markaz sifatida etakchi mavqeini mustahkamlash;
- kutubxonani rivojlantirishni ta'minlash, kutubxona mutaxassislarini zamonaviy talablar va professional standartlarga muvofiq o'qitishni rivojlantirish orqali ularning kasbiy saviyasini oshirish;
- xodimlar va o'quvchilarning ishlashi uchun qulay sharoit yaratish;
- ijtimoiy moslashuv va rehabilitatsiya usuli, o'z-o'zini tarbiyalash va muloqot chegaralarini kengaytirish imkoniyati sifatida aholining ijtimoiy himoyalangan qatlamlariga ma'lumot olish uchun sharoit yaratish va boshq.

Yaxshi kitobni chiroyli kutubxonada o'qish - bu, albatta ideal uyg'unlik. Tarixga nazar solsak, ilk kutubxonalar taxminan eramizdan 2600-yillar avval paydo bo'lgan ekan. Ammo afsuski u davrda ma'lumotlarning barchasini saqlab qoluvchi arxivlar mavjud bo'lmagan bo'lsa-da bizgacha ular kelmagan. Hozirgi zamonaviy kutubxonalar esa shu qadar qulay, o'ziga xos tarzda bunyod etilmoqdaki, ularni ko'rib barchaning ko'zi quvnaydi. Xo'sh zamonaviy kutubxonalar nimasi bilan ajralib turadi? Ularning noodatiy dizaynidan tortib, kitoblarning turli shakllarda nashr etilganigacha e'tiborni tortmay qolmaydi. Zamonaviy kutubxonalar yangicha arxitektura uslubida bo'lib kitobxonlarni hayratga solishi tayin.

Bugungi kunda yoshlar manaviyatini oshirishda kitob eng katta vositachi deb ko'p bora takidlaymiz. Ammo bugungi kun yoshlari kitob o'qishyaptimi? Ular o'zlariga qulay bo'lgan usuldan ya'ni elektron manbalardan ko'proq foydalanishadi. Misol uchun, biror bir so'zning ma'nosini qidirayotgan bo'lishsa, albatta uni lug'at kitobdan qarashmaydi. Telefon orqali elektron lug'atdan tez va oson ko'rishadi. Shunday ekan axborot-kutubxona markazlarida elektron bazani shakllantirish va ko'paytirish muhim ahamiyatga ega. Kutubxonaga borgan kitobxonning o'zi qidirayotgan kitobini tez va oson topishi uchun elektron katalog tizimini ham rivojlantirish lozim. Fondagi barcha kitoblarni elektron katalogga kiritish va ularning to'liq elektron variantini yaratish, bibliografik faoliyatni takomillshtirib lozim

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- . Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017 y. – 485 bet.
- . Mirziyoyev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. 1 jild Toshkent: “O‘zbekiston”, NMIU, 2017 y. – 592 bet.
- . O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi kutubxona - axborot markazi faoliyatini tashkil etishning choralari to‘g‘risida”gi 1729 -sonli Qarori. 2012 yil 20 mart.
- . O‘zbekiston Respublikasining “Kutubxona-axborot faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni // Xalq so‘zi.-2011 yil 14 aprel.
- . Qosimova O.G‘., Yesimov T. Umumiy kutubxonashunoslik: Darslik.- Toshkent: O‘qituvchi,1994.-272 b.
- . G‘aniyeva D. Ta’lim maqsadlarini amalga oshirishda kutubxona - axborot markazlarining roli / To‘plovchilar: D. G‘aniyeva, R I. Ratner, D.Akramova.- Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.-330
- . Toshkent shahridagi Inha universiteti sayti www.Inha.uz